

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova

Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti 4

M.Sh.Abdurahimova

Sukut psixofiziologiyasi 12

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova

Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin 15

D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova

O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi 26

N.Abduraxmonova, A.Iskandarova

Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi 29

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari 33

Z.B.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiy ko'plikning ifodalanishi 37

D.R.Ismoilova

The linguopoetics of John Steinbeck's works 42

I.A.Soatov

"Ta'lim-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi 46

Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева

Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы 52

Ш.У.Жалолов

Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур 56

Q.Sh.Kakharov

Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili 61

U.M.Askarova

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 65

I.Sh.Kurbanova

Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi 70

R.A.Xamrakulova

Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili 74

Sh.S.Shadiyeva

Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish 78

Д.О.Турдалиев

Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре 84

L.T.Toshxonov

Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romanchilik na'munalarida ifodalanishi 88

Ш.Н.Г.Мамедова

Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили 92

A.M.Temirova

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantik tahlili 98

F.H.Jamilli

The sociolinguistic nature of the representation of female dominance 102



ABDULLA QAHHORNING "MUHABBAT" QISSASIDA QO'LLANILGAN OKSIMORONLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОКСИМОРОНОВ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В РАССКАЗЕ АБДУЛЛЫ КАХХОРА "ЛЮБОВЬ"

STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF OXYMORONS USED IN ABDULLAH KAHHOR'S SHORT STORY "LOVE"

Muattar Temirova Amirqul qizi 

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasidagi oksimoronlarning struktur-semantik tahlilini o'rganiladi. Oksimoronlar matnning semantik mazmunini boyitib, ularning ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, Qahhorning "Muhabbat" qissasida oksimoron elementlarining til va adabiyotda qanday ishlatilganini aniqlash va ularning badiiy va semantik ro'lini tahlil qilishdir. Tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor o'ziga xos badiiy uslubi orqali o'quvchilarga murakkab ichki hissiyotlar va ziddiyatlarni oksimoronlar orqali to'la-to'kis yetkazib beradi. Shuningdek, ushbu maqolada oksimoronlarning tahlili yordamida badiiy matnlarning semantik va strukturaviy jihatlari ochib berish asosiy vazifa qilib olinadi.

Аннотация

В этой статье изучается структурно-семантический анализ оксюморонов в рассказе Абдуллы Каххора «Муhabbat». Оксюмороны обогащают семантическое содержание текста и служат для усиления их значения. Основная цель исследования — определить, как элементы оксюморона используются в языке и литературе в рассказе Каххора «Муhabbat», а также проанализировать их художественную и семантическую роль. Результаты исследования показывают, что Абдулла Каххор через свой уникальный художественный стиль полноценно передает сложные внутренние чувства и противоречия читателям с помощью оксюморонов. Кроме того, в данной статье основное внимание уделяется раскрытию семантических и структурных аспектов художественных текстов через анализ оксюморонов.

Abstract

This article studies the structural-semantic analysis of oxymorons in Abdulla Qahhor's story "Muhabbat". Oxymorons enrich the text's semantic content and enhance their meaning. The study's main aim is to identify how oxymoron elements are used in language and literature in Qahhor's "Muhabbat" and to analyze their artistic and semantic roles. The results of the study show that Abdulla Qahhor, through his unique creative style, fully conveys complex internal feelings and contradictions to readers through oxymorons. Additionally, the article focuses on revealing the semantic and structural aspects of literary texts through the analysis of oxymorons.

Kalit so'zlar: oksimoron, struktur-semantik tahlil, Abdulla Qahhor, "Muhabbat" qissasi, badiiy uslub.

Ключевые слова: оксюморон, структурно-семантический анализ, Абдулла Каххор, рассказ «Муhabbat», художественный стиль.

Key words: oxymoron, structural-semantic analysis, Abdulla Qahhor, "Muhabbat" story, artistic style.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, adabiy asarlar tahlillarida badiiy vositalar o'zining beqiyos o'rniga ega. Ular nafaqat matnning estetik qimmatini oshiradi, balki muallifning maqsadi hamda asarning chuqur ma'nosini kitobxonga yetkazishga xizmat qiladi. Shunday badiiy vositalardan biri – oksimoronlardir. Oksimoron - bu bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki so'zning birikmasi (asosan sifat va ot yoki fe'l, sifatdosh), masalan "shirin qayg'u" [3;162-b.] kabi. Oksimoron adabiyotda o'ziga xos fikr ifoda qilish, hissiy rang-baranglikni ta'minlash va o'quvchini chuqur mulohaza qilishga undashda muhim rol o'ynaydi.

Oksimoron azaldan badiiy uslubning muhim vositalaridan biri sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslikda o'rganib keladi. Uning ma'nosi o'zaro zid bo'lgan tushunchalarni uyg'unlikda qo'llash orqali yangi semantik ifodalar yaratishda namoyon bo'ladi. Bu haqida bir qancha tilshunos olimlar turli nuqtai nazarlarni ilgari surishgan:

TILSHUNOSLIK

Aristotel o'zining "Poetika" asarida badiiy ifoda vositalarining kuchi va ularning o'quvchi ongiga ta'siri haqida fikr yuritadi [1]. Aristotel oksimorongga to'g'ridan-to'g'ri ta'rif bermasa-da, zid tushunchalarning uyg'unligida estetik va hissiy kuchi borligini ta'kidlaydi. Undan tashqari, Yakobson, Shklovskiy, Eko ham Aristotelning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda, oksimoron adabiy asarda zid tushunchalarni birlashtirish orqali yangi semantik darajalar yaratishi, o'quvchiga asar mazmunini chuqurroq anglash imkonini yaratib, matnning badiiy ta'sirini oshiradi, oksimoron estetik va semantik jihatdan adabiy ijodning qudratli vositasi sifatida namoyon bo'ladi deb ta'kidlashgan [4, 6, 2].

Bugungi kunda dunyo lingvistik tadqiqotlarida oksimoron haqida ko'plab tilshunoslar izlanish olib borishmoqda. Ularning fikriga ko'ra, oksimoronning o'ziga xosligi nafaqat badiiy asarlarda, balki kundalik nutq, jurnalistika va boshqa sohalarida ham o'z aksini topmoqda. Bu uslub o'z ma'nosini yo'qotmagan holda adabiy jarayonlar balkim tilshunoslikning turli bosqichlarida ham rivojlanmoqda. Abdulla Qahhor, o'zbek adabiyotining atoqli namoyandasi, o'z asarlarida badiiy uslub vositalaridan keng foydalanishi bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biridir. Uning hikoya va qissalarida sodda, ammo ma'no jihatdan chuqur ifoda anglatishda foydalanilgan uslublar – jumladan, oksimoronlar – asarning badiiy tasvirni yanada kuchaytirishda qo'llanilgan. Shu sababli, Abdulla Qahhor ijodida qo'llangan oksimoronlarni struktur-semantik tahlil qilish o'quvchilarga yozuvchi mahoratini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqot Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida uchraydigan oksimoronlarning strukturasi va semantikasini o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – oksimoronlarning ijodiy jarayondagi o'rnini aniqlash, ularning estetik va ma'no yukini ochib berishdir. Shu orqali yozuvchining adabiy uslubini yanada chuqurroq yoritish maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llangan oksimoronlarning struktur-semantik tahlili amalga oshirildi [5]. Ilmiy izlanish davomida badiiy uslub vositalarini o'rganishga bag'ishlangan bir qator nazariy va amaliy tadqiqotlar asos sifatida olindi. Tadqiqot bir qancha metodologik tahlillar asosida amalga ocherildi. Shular jumlasiga struktur-semantik tahlilni kiritish mumkin. Ushbu yondashuv orqali oksimoronlarning morfologik tuzilishi, sintaktik shakllari va ularning kontekstdagi funksiyalari o'rganildi.

Asar matnida oksimoronlarning qo'llanilishi orqali badiiy tasvir vositalarining qanday yangi semantik imkoniyatlarni yaratgani tahlil qilindi. Shuningdek, kontekstual tahlil yordamida mazkur uslub vositasining Abdulla Qahhor "Muhabbat" qissasining badiiy-estetik ahamiyati ochib berildi. Ba'zan oksimoronlardan foydalanishga moyillik ma'lum adabiy yo'nalishlar va didlarning belgisi bo'ladi. Ba'zi shoir yoki yozuvchilar mavjud so'zlarning yangi ma'nolarini izlab, qarama-qarshi ma'nodagi so'zlarni birlashtirishni maqsad qilib oladi.[3; 163-b] "Ikki oddiy so'z birinchi marta birlashtirilsa yoki kutilmagan kontekstda ishlatilsa, deyarli yangi bo'lishi mumkin," deb yozadi V. V. Vinogradov [7; 121-122-b]. Semiotik yondashuv asosida esa oksimoronlarning belgi tizimlari doirasida qanday ishlashi va ular orqali o'quvchiga yetkazilayotgan ma'nolar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida oksimoronlar o'zbek adabiyotida qanday badiiy vazifalarni bajarishi bilan bir qatorda, ularning Abdulla Qahhor uslubiga xos jihatlari ham o'rganildi. Yozuvchining o'ziga xos uslubi, o'zaro zid tushunchalarni uyg'unlashtirish orqali asar matniga chuqur falsafiy va hissiy ma'no kiritgani aniqlanib, ular komparativ tahlil asosida boshqa adabiy namunalardagi o'xshash va farqli jihatlar bilan solishtirilgan. Tadqiqot nafaqat yozuvchining uslubini tahlil qilish, balki oksimoronlarning badiiy-estetik imkoniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqotda Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida keltirilgan misollar asosida oksimoronlarning struktur-semantik tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko'ra, oksimoronlar yozuvchi uslubining ajralmas qismi bo'lib, ular asarlardagi ziddiyatli kechinmalarni, qahramonlar ichki va tashqi olamining uyg'unlashuvini va voqelikning murakkab tabiatini ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Struktur tahlildan olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, yozuvchi oksimoronlarni ikki asosiy turda qo'llaydi:

• Birinchi tur doirasiga *qarama-qarshi* soʻzlar va *iboralar* birikmasini kiritish mumkin. Masalan, bir-biriga zid tushunchalarni ifodalagan soʻzlar foydalanilgan quyidagi misolni isbot sifatida olish mumkin:

*Men sizdan xafa emasman, nima deb bunchalik kuyinishingizni bilaman: yolgʻiz farzandman, meni **yer-koʻkka** ishonmaysiz, bolaligidan ham **yer-koʻkka** ishonmay oʻylab koʻchaga chiqarmas edingiz.* [5; 48-b.]

Keltirilgan misoldagi “yer” va “koʻk” soʻzlari oʻzaro ziddiyatli manolarni anglatadi, chunki biri yerning pastki qismi (jismoniy jihatdan), ikkinchisi esa osmonning yuqori qismi (abstrakt yoki osmon bilan bogʻliq) sifatida qabul qilinadi. Shu tufayli, bu ikki soʻz birgalikda oksimoronni tashkil qiladi.

• Ikkinchi tur esa *qahramonlarning ichki va tashqi ziddiyatlarini koʻrsatishga xizmat qiluvchi murakkab tuzilmalardan* iborat. Quyidagi misol berilgan fikrga asos boʻlib xizmat qiladi:

*Salimjon yoʻlda biroz hovuridan tushganday boʻlgan edi, uyga kelib yana jazvasi qoʻzidi: ustki koʻylagini yechib uloqtirdi, ota-onasi eshitmasin uchun Muhayyoning burniga-burnini ishqalaguday boʻlib **sekin baqirdi*** [5; 14-b].

Berilgan gapda “burniga-burnini ishqalaguday boʻlib **sekin baqirdi**” birikmasi ikki qarama-qarshi holat – “sekin” va “baqirdi” soʻzlaridan foydalanish orqali birlashtirilgan. Bu ifoda Salimjonning ichki iztiroblarini va tashqi olamdagi oʻzini tutish zaruratini bir vaqtning oʻzida koʻrsatishni ochib beradi. Bunday yondashuv qahramonning hissiy holatini yanada jonli tasvirlab, oʻquvchida obrazga nisbatan hamdardlik uygʻotadi.

Tadqiqotning semantik tahlili esa ushbu oksimoronlarning maʼno jihatdan boy va koʻp qatlamli ekanini koʻrsatadi. Quyida misollar asosida tahlil natijalarini yoritib berishga harakat qilamiz:

*“Hakimjon yana ham boʻgʻildi, lekin non yopayotgan Muhayyo eshitmasin uchun **qattiq shivirladi**”.* [5; 24-b]

Struktur jihatdan tahliliga eʼtibor beradigan boʻlsak, bu oksimoron qarama-qarshi *ravish* (“qattiq”) va *feʼl* (“shivirladi”) birikmasidan tashkil topgan. Semantik nuqtai nazardan esa, bu Hakimjonning iztirobini yashirishga boʻlgan urinishini koʻrsatadi, ichki iztirob va tashqi jimjitlik oʻrtasidagi keskinlikni tasvirlaydi.

*“Anvar shunday qarasa, yonida **tirik murdaday** boʻlib, hansirab Margʻuba turibdi, u shovqin solib yana Muhayyoga hamla qildi”.* [5; 30-b]

Bu birikmada “*tirik*” va “*murdaday*” soʻzlari qarama-qarshi tushunchalarni uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. Struktur jihatdan, ibora murakkab qarshilikni aks ettiruvchi oddiy tuzilmaga ega. Semantik jihatdan esa, bu Margʻubaning jismoniy mavjudligi va ruhiy halokati oʻrtasidagi ziddiyatni tasvirlaydi.

*“Muborakxonim **oʻtirar-turarini bilmay** Anvarning fakultetiga bordi, uning ishxonasini bilib zimdan odam yubordi, yana Muhayyoning **yaqin-yiroqdagi** dugonamlaridan, qarindoshlaridan xabar oldi.”* [5; 48]

Keltirilgan misolda biz ikkita oksimoronni koʻrishimiz mumkin. Ular “*oʻtirar-turarini bilmay*” hamda “*yaqin-yiroqdagi*” birikmalardir. “Oʻtirmoq va turmoq” hamda “yaqin va yiroq” zid tushunchalarni ifodalaganligi sababli birgalikda oksimoronni tashkil qiladi. Bu oksimoronlar Muborakxonimning ichki noaniqlik holati va iztirobini aks ettiradi.

*“Ota-onasining qanoti ostida **issiq-sovuqni bilmay oʻsgan** bola mol-dunyoning qadriga yetadimi?”* [5; 49]

Berilgan parchada qoʻllanilgan “issiq-sovuq” leksik jihatdan bir-biriga zid tushunchalarni ifodalagan sifatlardir. Ammo ular uygʻunlashgan holda asar qahramonining hayotiy tajriba va muvozanatdan mahrumligini, uning hayotga nohaq yondashuvini koʻrsatadi.

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, oksimoronlar matnning semantik mazmunini boyitibgina qolmay, uning struktur tarkibida ham muhim oʻrin tutadi. Bunday uslubiy vositalar Abdulla Qahhor ijodining oʻziga xosligini taʼminlab, asarlarning oʻzbek adabiyotidagi mavqeyini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bu uslub oʻquvchini qahramonlarning ichki dunyosini va voqelikning murakkabligini chuqurroq anglashga undaydi. Kelgusida oʻzbek adabiyotidagi boshqa mualliflar ijodida oksimoronlarning qoʻllanilishi va ularning struktur-semantik tahlili boʻyicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasida yangi xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

XULOSA

Keltirilgan misollarda oksimoronlar struktur va semantik jihatdan qahramonlarning ichki ziddiyatlarini va ijtimoiy o'rnini ko'rsatishda asosiy vosita sifatida qo'llangan. Ular inson hayotidagi murakkabliklarni aks ettirib, matn ma'nosiga chuqur drammatizm qo'shadi. Bu iboralar orqali Abdulla Qahhor nafaqat qahramonlarning ichki olamini, balki jamiyatdagi turli muammolarni ham badiiy ifoda eta olgan. Abdulla Qahhor asarlarida oksimoronlar qahramonlar ichki dunyosini ifodalash, voqealarning dramatik ta'sirini oshirish va o'quvchining asarga chuqurroq kirib borishini ta'minlash uchun ishlatilgan. Yozuvchi ushbu uslub orqali insonning murakkab tabiatini, hayotdagi ziddiyatlarni va his-tuyg'ularni chuqur estetik tarzda aks ettirishga erishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotle. (2008). *Poetics* (S. H. Butcher, Trans.). CreateSpace Independent Publishing Platform.
2. Eco, U. (1984). *The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts*. Indiana University Press.
3. Galperin, I. R. (1977). *Stylistics*. Moscow: Higher School Publishing House.
4. Jakobson, R. (1960). Closing statement: Linguistics and poetics. In T. A. Sebeok (Ed.), *Style in Language* (pp. 350–377). MIT Press.
5. Qahhor, A. (1968). *Muhabbat*. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti.
6. Shklovskiy, V. (1921). *Art as Technique*. In L. T. Lemon & M. J. Reis (Eds.), *Russian Formalist Criticism: Four Essays* (pp. 3–24). University of Nebraska Press.
7. Vinogradov, V. V. (1938). *Russkiy yazyk* (Vol. 1, pp. 121–122). Moscow: Nauka.